XALQ DEPUTATLARI KITOB TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 11 - oktabr VI-75-127-4-62-K/22 Kitob tuman hokimligi

Kitob tumanidagi ayrim nomsiz ko‘chalarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y, 41-son, 448-modda; 2017-y., 35-son,914-modda)ning 10-moddasi, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha respublika ekspert komissiyasining 2022-yil 8-avgustdagi 08-06770-sonli xulosa xati hamda tuman hokimining taklifini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Respublika ekspert komissiyasining 2022-yil 8-avgustdagi 08-06770-sonli xulosa xati hamda tuman hokimining taklifi ma’qullansin.

2. Kitob tumanidagi yangidan nomlangan geografik obyektlar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari v.v.b (B.Turayev)ga bir hafta muddatda tuman hududidagi yangidan nomlangan geografik obyektlarning nomlarini zamonaviy ko‘rinishda peshlavhalarga yozib o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

4. Kitob tumanidagi tegishli mahalla fuqarolar yig‘inlari raislariga ayrim ko‘chalarning yangidan nomlanishi munosabati bilan aholi o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini o‘tkazish tavsiya etilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (I.Tog‘ayev) yangidan nom berilgan ko‘chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlari berilayotganda mazkur holatga alohida e’tibor qaratsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari v.v.b (B.Turayev) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror tuman hokimligi nashrida chop etilsin.

8. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Sessiya raisi **Pardayev U.B**

Xalq deputatlari Kitob tuman
Kengashining
2022 yil 11 oktabrdagi
VI-75-127-4-62-K/22-son qaroriga
1-ilova

Kitob tumanidagi qishloq ko‘chalarining yangi nomlari

T/R	Geografik obyekt joylashgan mahalla	Geografik obyekt turi	Davlat ekspertizasidan o‘tgan nom
		Ko‘cha	
1	“Xalqlar do‘stligi” MFY	Nomsiz ko‘cha	Nasaf
2	“Xalqlar do‘stligi” MFY	Nomsiz ko‘cha	Nurafshon
3	“Xalqlar do‘stligi” MFY	Nomsiz ko‘cha	Navbahor
4	“Bektemir” MFY	Nomsiz ko‘cha	Bo‘ston
5	“Bektemir” MFY	Nomsiz ko‘cha	Bektemir
6	“Qo‘shdaryo” MFY	Nomsiz ko‘cha	Yangizamon
7	“Navro‘z” MFY	Nomsiz ko‘cha	Quduqsoy
8	“Navro‘z” MFY	Nomsiz ko‘cha	Musoguzar
9	“Navro‘z” MFY	Nomsiz ko‘cha	Kelajak
10	“Guliston” MFY	Nomsiz ko‘cha	To‘qimachilik
11	“Guliston” MFY	Nomsiz ko‘cha	Qirg‘oqbo‘yi
12	“Guliston” MFY	Nomsiz ko‘cha	Xiyobon
13	“Guliston” MFY	Nomsiz ko‘cha	Yangi O‘zbekiston
14	“Zarafshon” MFY	Nomsiz ko‘cha	Zarafshon
15	“Zarafshon” MFY	Nomsiz ko‘cha	Bahoriston
16	“Zarafshon” MFY	Nomsiz ko‘cha	Baxt
17	“Oyoqchi” MFY	Nomsiz ko‘cha	Qo‘rg‘oncha
18	“Denov” MFY	Nomsiz ko‘cha	Ravotak
19	“Denov” MFY	Nomsiz ko‘cha	Samo yo‘li
20	“Denov” MFY	Nomsiz ko‘cha	To‘pxona
21	“Denov” MFY	Nomsiz ko‘cha	Vatanparvar

22	“Denov” MFY	Nomsiz ko‘cha	Sharaf-shon
23	“Sharq yulduzi” MFY	Nomsiz ko‘cha	Mehr nuri
24	“Sharq yulduzi” MFY	Nomsiz ko‘cha	Anhorbo‘yi

Xalq deputatlari Kitob tuman
Kengashining
2022 yil 11 oktabrdagi
VI-75-127-4-62-K/22-son qaroriga
2-ilova

MA'LUMOTNOMA

Halq deputatlari Kitob tuman Kengashining "Kitob tumanidagi ayrim nomsiz ko'chalarni nomlash to'g'risida" gi qaror loyixasi O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuni (O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2011-yil 41-son, 448-modda; 2017-yil 35-son, 914-modda)ning 10-moddasi, xamda tuman maxalla fuqarolar yig'inlarining iltimosnomalari va tuman xokimining taklifiga ko'ra, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha Respublika ekspert komissiyasining 2022-yil 8-avgustdagi 08-06770-sonli xulosa xati hamda tuman hokimining taklifini ko'rib chiqib, xulosalar ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6,24-moddasiga asoslanib ishlab chiqilgan.

Halq deputatlari Kitob tuman Kengashining "Kitob tumanidagi ayrim nomsiz ko'chalarni nomlash to'g'risida" gi qaror loyixasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunchilikka va qonunchilik texnikasi qoidalariga to'liq javob beradi.

Halq deputatlari Kitob tuman Kengashining "Kitob tumanidagi ayrim nomsiz ko'chalarni nomlash to'g'risida" gi qaror loyixasi 2022-yil 21-sentabr kuni interaktiv portalga muxokoma uchun kiritilgan edi (ID № 68570), 2022-yil 6-oktabr kuni interaktiv portalda muxokoma muddati tugadi.Qaror loyihasi bo'yicha qo'shimcha va takliflar tushmaganligi sababli xuquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun yuborilmoqda.

Kitob tuman hokimligi bosh yuriskonsulti,
2-chi darajali Adliya maslahatchisi **Sh.Eshniyazov**

4